



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	



MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI

Ergashev Jamshid Axmadaliyevich

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0005-3503-0183

E-mail: jamshidergashev363@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan dolzarb masalalar, atrof-muhitdan oqilona foydalanish, organik meva-sabzavot mahsulotlariga jahon talabining ortib borishi hamda milliy eksport mahsulotlarining xalqaro bozordagi o'rni va mavqei atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismi hisoblangan meva-sabzavotchilikda yangi va yuqori unumdor texnologiyalarni joriy etish orqali zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish samaradorlikni oshirish imkonini berishi asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida 2022–2024-yillarda meva-sabzavotchilik tarmog'i eksporti statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksporti, eksport salohiyati, import, statistika, iqtisodiyot, strategiya, boshqaruv, qishloq xo'jaligi, samaradorlik, yuqori unumdor texnologiyalar, internet muhiti.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of key issues related to the development of the fruit and vegetable sector, rational use of environmental resources, increasing global demand for organic fruits and vegetables, and the role and position of national export products in international markets. Based on an analysis of fruit and vegetable exports during 2022–2024, the study demonstrates that the introduction of modern management approaches and high-performance technologies in production can significantly enhance agricultural efficiency. The research presents scientific and practical conclusions derived from statistical analysis.

Key words: export of fruit and vegetable products, export potential, import, statistics, economics, strategy, management, agriculture, efficiency, high-performance technologies, internet environment.

Аннотация. В статье всесторонне рассматриваются актуальные вопросы развития плодовоовощеводческой отрасли, рационального использования окружающей среды, роста мирового спроса на органические фрукты и овощи, а также роль и положение отечественной экспортной продукции на международном рынке. На основе анализа экспорта плодовоовощной отрасли в 2022–2024 годах обосновано, что внедрение современных методов управления и высокопроизводительных технологий в выращивании плодовоовощной продукции позволяет существенно повысить эффективность сельского хозяйства. По результатам исследования сформулированы научно-практические выводы.

Ключевые слова: экспорт плодовоовощной продукции, экспортный потенциал, импорт, статистика, экономика, стратегия, менеджмент, сельское хозяйство, эффективность, высокопроизводительные технологии, интернет-среда.

KIRISH

Dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi strategik ahamiyatga ega ustuvor yo'nalish sifatida shakllanib bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida organik mahsulotlar to'g'risidagi axborotning shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jahon bozorida tan olingan GlobalGAP, Organic hamda ISO kabi



xalqaro sertifikatlar talablariga to'liq javob beradigan eksportbop meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini eksport qilish jarayoni muayyan resurslarni talab etadi. Bu jarayonda qayta tiklanadigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalish mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonining 28-maqсадida respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda umumiy eksport hajmini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish asosida mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, tashqi bozor va xalqaro talablarga mos standartlarni joriy etish hamda mashhur xalqaro brendlarni jalb etish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4549-sonli qarori ushbu sohani tizimli rivojlantirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy asos hisoblanadi [2].

Mamlakatimizda mavjud tabiiy, iqtisodiy va tashkiliy salohiyatdan samarali foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish zamonaviy boshqaruv tizimi va mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llashsiz mumkin emas. Shu bois, ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston meva-sabzavotchilik mahsulotlariga tashqi bozorlarda, ayniqsa Yevropa mamlakatlarida mavjud talabni tahlil qilish, ularning standart va talablariga mos mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini baholash hamda zamonaviy, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali eksport salohiyatini boshqarish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur jarayonlar o'z navbatida milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yurtimiz agrosanoat majmuasi yuqori eksport salohiyatiga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti masalalari iqtisodiy fanlar doirasida muayyan darajada tadqiq etilgan. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mazkur sohaning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilish xususiyatlari hamda eksport faoliyatini amalga oshirish sharoitlariga oid jihatlar ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Jumladan, Korotovning fikricha, "davlatning eksport salohiyatini kengaytirish masalasi uning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Agrosanoat majmuasi mahsulotlari mamlakat eksportining muhim tarkibiy qismini tashkil etib, ushbu sohani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat tomonidan yanada faol choralar ko'rilishini taqozo etadi", degan ilmiy xulosani ilgari suradi [3].

M. Seyfullayev va V. Kapitsinning tadqiqotlarida mamlakatning eksport salohiyati milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnikaviy, texnologik, sanoat hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi resurslar bazasi va umumiy iqtisodiy holatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Mualliflar ilmiy-texnologik jarayonlarni rivojlantirmasdan turib, eksport salohiyatining barqaror o'sishini ta'minlash mushkul ekanligini asoslab berganlar [4]. Shuningdek, mahalliy iqtisodchi olimlar Sh. Shodmonov va U.V. G'ofurovlarning ta'kidlashicha, eksport bu mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni chet el bozorlariga sotish jarayoni bo'lib, mazkur faoliyat iqtisodiy rivojlanish va tashqi savdo aloqalarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarnalarida eksport salohiyati hamda uni boshqarish mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan atroflicha yoritilgan. Eksport salohiyati darajasini oshirishga qaratilgan masalalar tizimli va kompleks tarzda ko'rib chiqilgan. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyatiga bag'ishlangan ilmiy manbalarda ushbu tushuncha, asosan, meva-sabzavotchilik mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi hamda ularning ichki va tashqi bozor talablariga mosligi yoki nomuvofiqligini aniqlash mezonlari orqali tavsiflanadi. Bu esa meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksport salohiyatini boshqarish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, qishloq xo'jaligi sohasiga oid yillik hisobotlar hamda ochiq axborot manbalari asosida shakllantirildi. Maqolada meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksport salohiyatini boshqarishga doir nazariy qarashlar o'rganilib, 2022–2024-yillar kesimida eksport hajmlaridagi o'zgarishlar hamda meva-sabzavotchilik tarmog'i eksportining asosiy tendensiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot doirasida statistik tahlil, tanlama kuzatuv va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar meva-sabzavotchilik mahsulotlari eksport salohiyatini boshqarish samaradorligini baholash hamda mavjud muammolar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda respublikada eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, klasterlar va kooperatsiyalarni rivojlantirish, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hamda dehqon xo'jaliklari yerlarida, shuningdek, aholining tomorqa xo'jaliklarida resurslardan, jumladan suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekinlarni yetishtirishda agrotexnik talablarni to'liq bajarish yuqori samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Avvalo, eksportga yo'naltirilgan mahsulotni qaysi tashqi bozorga chiqarish rejalashtirilayotgani va ushbu bozorning talablarini chuqur va har tomonlama o'rganish zarur. Shu bilan birga, mazkur bozorda mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mintaqasiga yaqin bo'lgan davlatlarning mahsulot turlari bilan tanishish, yetakchi eksportyor mamlakatlarning mahsulot assortimenti va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, qadoqlash va sertifikatlash jarayonlarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Meva-sabzavotchilik tarmog'ining eksport salohiyati va uni boshqarish samaradorligini tahlil qilish jarayonida quritilgan meva-sabzavot mahsulotlari segmentidagi tendensiyalar sezilarli iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi kuzatiladi. Mazkur mahsulotlar yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lib, tashqi bozorlarda barqaror talab bilan ajralib turadi.

2022–2024-yillarda respublikaning meva-sabzavot, oziq-ovqat hamda boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi (tonna hisobida) va eksport qiymati (ming AQSh dollari hisobida) dinamikasi quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. 2022–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi va qiymati [6]

Mahsulot turi	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Hajmi (tonna)	Qiymati (ming dollar)	Hajmi (tonna)	Qiymati (ming dollar)	Hajmi (tonna)	Qiymati (ming dollar)
Jami:	3 049 585	1 858 199	3 277 843	1 951 687	3 595 067	2 445 713
Meva-sabzavot mahsulotlari jami:	1 728 868	1 132 384	1 696 108	1 101 352	2 019 260	1 515 324
Oziq-ovqat mahsulotlari jami:	1 225 546	655 351	1 496 968	772 180	1 466 979	814 095
Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari jami:	95 171	70 463	84 768	78 156	108 828	116 294

Xususan, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 2022-yilda 1 728 868 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 1 696 108 tonnagacha kamaygan. Biroq 2024-yilda eksport hajmi sezilarli darajada oshib, 2 019 260 tonnaga yetgan.


Eksport hajmidagi ushbu dinamikaga mos ravishda, qiymat ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti qiymati 2022-yilda 1 132 384 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 1 101 352 ming AQSh dollarigacha qisqargan. 2024-yilda esa eksport qiymati keskin o'sib, 1 515 324 ming AQSh dollariga yetgan.

2023-yilda eksport hajmi va qiymatidagi pasayish global bozor sharoitlari, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda tashqi talab omillarining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin. 2024-yilda kuzatilgan ijobiy o'sish esa respublika agrar sektorida amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari, mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish, shuningdek, eksport zanjirlarini optimallashtirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportidagi barqaror o'sish milliy iqtisodiyotga qo'shimcha valyuta tushumlarini ta'minlab, tashqi savdo balansining mustahkamlanishiga hamda meva-sabzavotchilik tarmog'ining global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur sohada eksport salohiyatini samarali boshqarish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, qishloq hududlarida bandlik darajasini ko'tarish hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun muhim strategik imkoniyatlar shakllanadi.



Umuman olganda, 2022–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi va qiymati agrar sektorning rivojlanish darajasi, tashqi savdo salohiyati hamda resurslardan samarali foydalanish holatini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy indikator sifatida namoyon bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. 2022–2024-yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmi (tonna) [7]

Umumiy eksport hajmi 2022-yilda 3,05 million tonnadan 2024-yilda 3,60 million tonnagacha oshib, uch yillik davr mobaynida izchil va barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Mazkur davrda jami meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 1,34 million tonnadan 1,59 million tonnagacha yetdi. Ushbu ijobiy dinamika respublika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish zanjirlarining zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinishi, mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar hamda logistika infratuzilmasining takomillashtirilishi bilan bevosita bog'liqdir. Eksport hajmining oshishi valyuta tushumlarining sezilarli ko'payishiga olib kelib, tashqi savdo balansining barqarorligini ta'minlashga muhim hissa qo'shdi. Shu bilan birga, meva-sabzavot mahsulotlari eksportining izchil o'sish tendensiyasi agrar sektorning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, ichki resurslardan samarali foydalanish hamda milliy iqtisodiyotning global bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi strategik istiqbollarni yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimiz meva-sabzavotchilik tarmog'ining eksport salohiyatini yanada oshirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo'lib, ushbu imkoniyatlarni samarali ro'yobga chiqarish resurslarni modernizatsiya qilish hamda eksportyorlar faoliyatini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Tarmoqning eksport salohiyatini boshqarishni takomillashtirish, innovatsion rivojlanish choralari kengaytirish va mavjud tashqi bozorlardagi mavqeini mustahkamlash zamonaviy boshqaruv yechimlariga ustuvor e'tibor qaratishni talab etadi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamlashtirilgan strategik eksport va logistika portfelini shakllantirish, uni diversifikatsiyalash, shuningdek, qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltirilgan qayta ishlash sanoatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, eksport jarayonlarida rejalashtirish elementlarini uzviy va tizimli ravishda takomillashtirish talab etiladi. Mahsulot sifatini xalqaro bozorlar talablariga mos darajaga yetkazish uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda sifat nazoratini kuchaytirish zarur.

Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qayta ishlash, saqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish hamda tarmoqda faoliyat yurituvchi kadrlar malakasini muntazam oshirib borishga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar meva-sabzavotchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash va uning global bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–4549-son Qarori.
3. Котов, Р. М. (2010). Совершенствование государственной поддержки сельского хозяйства на региональном уровне: автореф. дис. ... канд. экон. наук. Новосибирск, с. 3–4.
4. Сейфуллаева, М. Э. (2007). Механизм формирования экспортного потенциала региона. Регион, № 1, с. 68–83.
5. Shodmonov, Sh. Sh., & Ubaydullayev, U. V. (2010). Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 610 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy byulletenlari asosida muallif hisob-kitoblari.
7. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>